

ABDURAUUF FITRAT VA UNING O‘ZBEK TILI FONETIKASIGA OID ILMIY QARASHLARI

Tojiyeva Yulduz Saloxiddin qizi,

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola Abdurauf Fitratning o‘zbek tili fonetikasiga oid ilmiy qarashlarini tahlil qiladi. 1920-yillarda “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti va 1921yilgi Til va imlo qurultoyi doirasida amalga oshirilgan islohotlar asosida Fitratning unlilar tizimi, singarmonizm qonuni va imlo fonetik asoslari bo‘yicha takliflari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Abdurauf Fitratning fonetika sohasiga oid qarashlarini tizimli ravishda tahlil qilish va ularning nazariy asoslarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijasida Fitratning dastlab 6 unli tizimidan 9 unli fonemaga o‘tishi va qishloq shevalariga asoslanib turkiy fonetik xususiyatlarni saqlash zarurligi birinchi marta xronologik tartibda ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, o‘zbek tili fonetikasi, unlilar tizimi, singarmonizm, imlo islohoti, “Sarf” asari, Chig‘atoy gurungi.

Abstract. This article analyzes the linguistic views of Abdurauf Fitrat regarding Uzbek phonetics. It examines Fitrat's proposals on the vowel system, the law of synharmonism, and the phonetic principles of orthography, in the context of reforms undertaken by the “Chig‘atoy Gurungi” organization and at the 1921 Language and Orthography Congress. The primary objective of this research is to systematically analyze Abdurauf Fitrat's perspectives on phonetics and to reveal their theoretical underpinnings. The study concludes by providing, for the first time, a chronologically ordered, scholarly justification for Fitrat's transition from a 6-vowel system to a 9-vowel phoneme model, and his argument for preserving Turkic phonetic features based on rural dialects.

Keywords: Abdurauf Fitrat, Uzbek phonetics, vowel system, synharmonism, orthographic reform, “Sarf”, Chig‘atoy Gurungi.

Аннотация. В данной статье анализируются научные взгляды Абдурауфа Фитрата на фонетику узбекского языка. На основе реформ, осуществлённых в 1920-х годах в рамках организации “Чигатой гурунги” и Съезда по языку и орфографии 1921 года, рассматриваются предложения Фитрата, касающиеся системы гласных, закона сингармонизма и фонетических основ правописания. Основная цель исследования заключается в системном анализе взглядов Абдурауфа Фитрата в области фонетики и раскрытии их теоретической основы. В результате исследования впервые в хронологическом порядке научно обоснован переход Фитрата от первоначальной 6-гласной системы к системе из 9 гласных фонем, а также необходимость сохранения тюркских фонетических особенностей, опираясь на сельские диалекты.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, фонетика узбекского языка, система гласных, сингармонизм, орфографическая реформа, труд “Сарф”, “Чигатой гурунги”.

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston jadid harakati davrida til va imlo masalalari milliy o‘zlikni saqlash va maorifni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Arab grafikasi asosidagi yozuv o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini, ayniqsa unlilar tizimini to‘liq ifodalay olmas edi. Bu holat savodxonlik darajasini pasaytirar va adabiy tilni shakllantirishni qiyinlashtirardi. Shuning uchun o‘zbek tilining fonetik asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti Abdurauf Fitratning o‘zbek tili fonetikasiga oid ilmiy qarashlarini olinadi. Tadqiqot subyekti Fitratning “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf” asari, 1921-yilgi Til va imlo qurultoyi materiallari hamda uning boshqa tilshunoslikka oid

ishlaridagi fonetik masalalari hisoblanadi. Abdurauf Fitrat (1886–1938) o‘zbek tilshunosligining asoschilaridan biri va “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining faol a‘zosi sifatida o‘zbek tilini turkiy asosda rivojlantirish va fonetik imloga o‘tkazish tarafdori ekanligi aniqlandi. Uning 1921-yilgi Til va imlo qurultoyidagi nutqi hamda “Sarf” (1925) asari fonetika masalalarini ilmiy asosda ko‘rib chiqildi.

Ushbu maqola Abdurauf Fitratning o‘zbek tili fonetikasiga oid qarashlarini tizimli tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Fitratning birlamchi manbalari va ikkinchi darajali tadqiqotlar asos qilib olingan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi Fitratning fonetik qarashlarining ilmiy ahamiyatini aniqlash va ularning zamonaviy o‘zbek tilshunosligiga ta‘sirini ko‘rsatishdir.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Fitrat dastlab 6 unli tizimini qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, keyinchalik 9 unli fonemani (yo‘g‘on va ingichka qatorlar) qabul qilib, qishloq shevalariga tayangan holda turkiy fonetik xususiyatlarni saqlashni taklif etgan. Bu qarashlar singarmonizm qonuni va imlo fonetik asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Ushbu tadqiqotda Fitratning fonetik qarashlarining evolyutsiyasi birinchi marta xronologik tartibda ko‘rib chiqilmoqda. Dastlabki 6 unli tizimidan 9 unli fonemaga o‘tish jarayoni, qishloq shevalariga tayanish tamoyili va 1926-yilgi Boku konferensiyasi ta‘siri yangi nuqtai nazardan tahlil qilinmoqda.

Tadqiqot savoli sifatida quyidagilar tanlandi:

1. Abdurauf Fitrat o‘zbek tilining fonetik tizimini qanday ilmiy asosda baholagan?
2. Abdurauf Fitratning ilmiy qarashlari zamonaviy tilshunoslikka qanday ta‘sir ko‘rsatgan?

Adabiyotlar sharhi. Abdurauf Fitratning o‘zbek tili fonetikasiga oid qarashlari ilmiy manbalarda izchil yoritilgan. Ular tadqiqot kontekstini belgilash, dolzarblikni asoslash va nazariy poydevor yaratish vazifasini bajaradi.

Birinchi navbatda, Fitratning “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf” (1925) asari asosiy birlamchi manba hisoblanadi. Ushbu asarda fonetika grammatikaning boshlang‘ich qismi sifatida talqin qilinadi. Muallif tovush tizimini nutqqa asoslangan holda tushuntiradi. Bu yondashuv tilni deskriptiv o‘rganish tamoyiliga mos keladi. Bu manba Fitrat qarashlarining ilmiy asosini bevosita ochib beradi va tadqiqot uchun nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

Ganiyeva (2024) tadqiqotida jadidlarning unlilar tizimi haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Unda Fitrat dastlab 6 unli tizimini qo‘llagani, keyinchalik esa 9 unli tizimga o‘tgani ko‘rsatiladi. Unda shahar va qishloq shevalari farqi ta‘kidlanadi. Bu manba tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi, chunki hozirgi o‘zbek tilida fonetik masalalar hali ham muhokama qilinmoqda. Fitrat merosini zamonaviy tilshunoslik bilan bog‘lashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Hakimova va Sotimboyeva (2023) Fitratning tilshunoslik qarashlarini umumiy talqin qiladi va “Sarf” asaridagi fonetik yondashuvlarni ko‘rsatadi. Mualliflar Fitratning tilni

“o‘zidan” olish tamoyilini alohida ta’kidlaydilar. Bu manba tadqiqotchi sifatida mavzuni chuqur tushunishni namoyish etadi. Bu ish Fitratni nafaqat tilshunos, balki milliy tilni rivojlantiruvchi olim sifatida ko‘rsatadi.

1921-yilgi Til va imlo qurultoyi materiallari Fitrat g‘oyalarining amaliy ifodasini aks ettiradi. Bu manbada imloni fonetik asosga yaqinlashtirish masalasi ko‘tarilgan. Ushbu hujjat Fitrat qarashlarining nazariy emas, balki amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Nizomiddin Mahmudov (2024) maqolasida Fitratning tilshunos sifatidagi faoliyati umumiy tarzda bayon etiladi. Mazkur manba ilmiy chuqur tahlil bermasa-da, tarixiy kontekstni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar Fitratning fonetik qarashlarini yoritishda muhim ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada sifatli yondashuv qo‘llanildi. Shu bilan birga qiyosiy va analitik usullardan ham foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida Fitratning birlamchi manbalari (“Sarf” asari, 1921-yilgi qurultoy materiallari va “Tilimiz” maqolasi) o‘rganildi. Ikkinchi darajali manbalar – zamonaviy ilmiy maqolalar (Ganiyeva, n.d.; Hakimova & Sotimboyeva, 2023; boshqalar) – qo‘shimcha ma’lumot berish uchun ishlatildi. Ma’lumotlar hujjatlarni saralash va matnlarni tanlab olish orqali yig‘ildi. Tahlilda kontent tahlili asosiy usul bo‘ldi. Tahlil jarayoni quyidagicha o‘tkazildi:

1. Manbalardan fonetika (unlilar, singarmonizm, imlo) bilan bog‘liq parchalarni ajratib olish;
2. Fitratning qarashlarini xronologik tartibda (dastlabki va keyingi bosqichlar) solishtirish;
3. 1926-yilgi Boku turkiy alifbo konferensiyasi ta’sirini hisobga olish.

Olingan natijalar grammatik, diskursiv va tematik tahlil asosida umumlashtirildi. Birlamchi manbalarning to‘liq matnlari cheklanganligi sababli tadqiqot asosan ikkinchi darajali manbalardagi tahlillar va iqtiboslarga tayangan holda olib borildi.

Natija va muhokamalar. Maqolada Abdurauf Fitratning fonetik qarashlari tahlil qilindi. Fitratning “Sarf” asari va 1921-yilgi Til va imlo qurultoyi materiallari asosida unlilar tizimi, singarmonizm qonuni va imlo fonetik asoslari o‘rganildi. Natijalar o‘zbek tilining turkiy fonetik xususiyatlarini saqlashga qaratilgan qarashlarni ko‘rsatdi.

Asosiy natijalar quyidagilar:

1. Unlilar tizimi va singarmonizm. Fitrat dastlab arab alifbosini soddalashtirish maqsadida 6 unli tizimini (alti cho‘zg‘ili imla) taklif qilgan. Bu shahar shevalaridagi fors-tojik ta’sirini hisobga olgan holda amalga oshirilgan (Ganiyeva, n.d.). Biroq, 1926-yilgi Boku konferensiyasidan keyin u pozitsiyasini o‘zgartirib, 9 unli fonemani qo‘llab-quvvatlagan. Uning fikricha, o‘zbek tilida unlilar “yo‘g‘on” va “ingichka” qatorlarga bo‘linadi, bu singarmonizm qonuniyatini aks ettiradi. “E” unlisi esa farqlanmaydi. Fitrat qishloq shevalariga tayanishni tavsiya etgan. Chunki ular umumturkiy fonetik xususiyatlarni yaxshiroq saqlagan (Ganiyeva, n.d.). Quyidagi gistogramma orqali unlilarning tizimining taqqoslanishini ko‘rishimiz mumkin:



Abdurauf Fitrat o‘zbek tilshunosligida fonetika masalalarini ilmiy asosda ko‘rib chiqqan olimlardan biri hisoblanadi. Uning “O‘zbek tili qoidalarini to‘g‘risida bir tajriba: Sarf” asarida fonetika grammatikaning birinchi bo‘limi sifatida joy olgan. Fitrat o‘zbek tilini turkiy tillar oilasining bir qismi deb hisoblab, uning fonetik xususiyatlarini saqlash zarurligini ta’kidlagan. Dastlab Fitrat 6 unli tizimini qo‘llab-quvvatlagan. Bu yondashuv shahar shevalaridagi fors-tojik ta’sirini hisobga olgan holda imloni soddalashtirish maqsadida amalga oshirilgan. Keyinchalik, 1926-yilgi Boku turkiy alifbo konferensiyasi ta’sirida u pozitsiyasini o‘zgartirib, 9 unli fonemani (yo‘g‘on va ingichka qatorlar) qabul qilgan. Olim qishloq shevalariga tayanishni tavsiya etgan, chunki ular umumturkiy fonetik xususiyatlarni yaxshiroq saqlagan. Singarmonizm qonuni (unlilar uyg‘unligi) ham Fitrat qarashlarida muhim o‘rin tutgan. U shahar shevalarida bu qonuniyat fors-tojik ta’siri bilan buzilganini tanqid qilgan.

2. Imlo va fonetik moslik. Fitrat arab yozuvini o‘zbek fonetikasiga moslashtirishni taklif qilgan: nuqtasiz “vov” (و) harfi bilan “o” va “o’” tovushlarini, nuqtali “vov” (وْ) bilan “u” va “ü” ni, hamza (ه) bilan “ä” va “e” ni ifodalash. Bu o‘zbek tilining o‘ziga xos tovushlarini aniqroq ko‘rsatishga xizmat qilgan. Uning “Sarf” asarida fonetika grammatikaning birinchi bo‘limi sifatida ko‘rib chiqilgan va til qoidalarini “tilimizning o‘zidan” olish tamoyili ilgari surilgan (Hakimova & Sotimboyeva, 2023). Fitrat arab yozuvini o‘zbek tilining fonetik xususiyatlariga moslashtirish bo‘yicha aniq takliflar bergan. Quyidagi jadvalda uning asosiy takliflari ko‘rsatilgan:

Jadval


№	Arab harfi	Fitrat taklif qilgan tovush(lar)	Misollar	Izoh
1	و (nuqtasiz vov)	o, o’	ot, o‘g‘il, yo‘l	Yo‘g‘on unlilar uchun
2	وْ (nuqtali vov)	u, ü	uy, kül, tur	Ingichka unlilar uchun
3	ه (hamza)	ä, e	äl, eshik, kel	Oldingi unlilar uchun

4	ا (alif)	a	ata, olma	Asosiy ochiq unli
5	ي (y)	i (ikki xil talaffuz)	bir, yil, shirin	Yo'g'on va ingichka unlilar

Fitrat arab yozuvini o'zbek fonetikasiga moslashtirishni taklif qilgan. Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilganidek, u harflarni tovushlarga aniq bog'lagan. Bu o'zbek tilining o'ziga xos tovushlarini to'g'ri ifodalashga yordam bergan. Fitrat imlo va fonetik moslikka katta e'tibor bergan. Arab yozuvini o'zbek fonetikasiga moslashtirish uchun maxsus takliflar bergan: nuqtasiz "vov" (و) harfi bilan "o" va "o'" tovushlarini, nuqtali "vov" bilan "u" va "u'" ni ifodalash kabi. "Sarf" asarida u tovush yo'qolishi hodisasini (masalan, o'g'il – o'g'lim, ko'ngil – ko'nglim) qoida sifatida belgilagan va buni tilning "yingillik istagi" bilan izohlagan. Bu qoida hozirgi o'zbek grammatikasida ham saqlanmoqda.

3. Qarashlarning evolyutsiyasi. 1921-yilgi qurultoyda Fitrat imloni soddalashtirish orqali savodxonlikni oshirishni ta'kidlagan. Keyinchalik "Sarf"ning turli nashrlarida (1925–1930) 6 unli dan 9 unliga o'tish kuzatiladi, bu turkiy tillar birligi va fonetik aniqlikka bo'lgan talab bilan bog'liq. Fitrat qarashlarining ustuvor yo'nalishlarini quyidagi diagramma orqali ko'rishimiz mumkin:

FITRAT QARASHLARINING USTUVOR YO'NALISHLARI



Fitratning fonetik qarashlari evolyutsiyasi o'zbek tilshunosligidagi muhim jarayonni ko'rsatadi. Dastlabki davrda (1921-yil) u imloni soddalashtirish va savodxonlikni oshirish maqsadida 6 unli tizimini taklif qilgan. Bu yondashuv amaliy zaruratdan kelib chiqqan edi.

Keyinchalik, ayniqsa, 1926-yilgi Boku konferensiyasidan so'ng, Fitrat o'z qarashlarini o'zgartirdi. U 9 unli fonemani qabul qilib, qishloq shevalariga tayanishni va turkiy fonetik xususiyatlarni saqlashni ustuvor vazifa qilib qo'ydi. Bu o'zgarish uning ilmiy qarashlarining chuqurlashganidan va milliy tilning asl ildizlarini saqlashga bo'lgan intilishidan dalolat beradi.

Diagramma shuni tasdiqlaydiki, Fitratning eng katta e'tibori unlilar tizimiga qaratilgan (35%). Keyin imlo islohoti (28%) va singarmonizm (25%) turadi. Shevalarga tayanish esa uning keyingi davrdagi asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan.

Biroq Fitrat qarashlarida ba'zi cheklovlar ham kuzatiladi. Dastlabki 6 unli taklifi o'sha davr savodxonlikni oshirish talabidan kelib chiqqan bo'lsa-da, tarixiy fonetika nuqtai nazaridan eski turkiy tillardagi boy unlilar tizimini to'liq hisobga olmagan. Shuningdek, tadqiqot asosan adabiy til va yozuvga yo'naltirilgan bo'lib, dialektal farqlarni chuqur tahlil qilmagan. Siyosiy sharoitlar (sovet davri) ham uning ba'zi takliflarini cheklagan.

Umuman olganda, Fitratning qarashlari evolyutsiyasi zamon talablariga moslashuvchanlikni va chuqur ilmiy yondashuvni namoyon etadi. Uning bu g'oyalari keyinchalik o'zbek adabiy tili va grammatikasining shakllanishida muhim rol o'ynagan hamda hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, Abdurauf Fitrat o'zbek tilining fonetik tizimini turkiy asosda rivojlantirish tarafdori bo'lgan. Uning qarashlari dastlabki soddalashtirishdan keyinchalik to'liqroq 9 unli tizimga o'tishni namoyish etadi. Bu yondashuv keyinchalik lotin alifbosiga o'tish (1929) va zamonaviy o'zbek fonetikasiga asos bo'lgan. Fitratning takliflari bugungi kunda ham o'zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Fitratning fonetik qarashlari o'zbek tilshunosligida muhim burilish yasagan. Uning unlilar tizimi, singarmonizm va imlo bo'yicha takliflari milliy grammatika yaratishda tamal toshini qo'ygan. Bugungi kunda ham bu qarashlar o'zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlash va rivojlantirishda dolzarb hisoblanadi. Kelgusida "Sarf" asarining to'liq matnini arxivdan o'rganish va zamonaviy fonetik tadqiqotlar bilan qiyoslash tilshunosligimizni yanada chuqurlashtiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Abdurauf Fitratning o'zbek tili fonetikasiga oid qarashlarini ochib berdi. Fitrat dastlab 6 unli tizimini taklif qilgan, keyinchalik 9 unli fonemani qabul qilgan. U qishloq shevalariga tayangan holda turkiy fonetik xususiyatlarni saqlashni tavsiya etgan. Shuningdek, singarmonizm qonuni va tovush yo'qolishi hodisasini grammatikaga kiritgan.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatdiki, Fitrat o'zbek tilini yot unsurlardan tozalash va uning milliy asoslarini mustahkamlash tarafdori bo'lgan. Uning qarashlari o'zbek tilshunosligida muhim burilish yasagan va keyinchalik lotin alifbosiga o'tishga asos bo'lgan.

Fitratning fonetik qarashlarini hozirgi o'zbek tilshunosligida yanada chuqurroq qo'llash zarur. Xususan, uning "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf" asaridagi unlilar tizimi, singarmonizm qonuni va tovush yo'qolishi qoidalarini zamonaviy o'quv darsliklari va imlo qoidalariga kengroq kiritish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Fitratning arab yozuvini o'zbek fonetikasiga moslashtirish bo'yicha takliflarini ("Sarf" va "Nahv" asarlarida berilgan) hozirgi lotin yozuvidagi imlo muammolarini hal qilishda foydalanish tavsiya etiladi. Bu savodxonlikni oshirish va tilning milliy xususiyatlarini saqlashga yordam beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun quyidag takliflar ilgari suriladi:

- Fitratning “Sarf” asarining to‘liq matnini arxivlardan topib, zamonaviy fonetik va fonologik usullar bilan chuqur tahlil qilish;
- Uning “Nahv” va “Tilimiz” maqolalaridagi qarashlarni bugungi shevalar bilan qiyosiy tadqiqot o‘tkazish;
- Fitratning 9 unli tizimi va singlarmonizm bo‘yicha g‘oyalarini maktab va oliy ta‘lim darsliklariga kiritish;
- Fitratning fonetik merosini raqamlashtirish va ochiq ilmiy bazalarga joylashtirish.

Bu takliflar o‘zbek tilshunosligini yanada rivojlantirishga, milliy tilimizning tarixiy ildizlarini chuqurroq o‘rganishga va Fitratning ilmiy merosini keng ommaga yetkazishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot Fitratning tilshunoslik merosining naqadar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Uning g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fitrat, A. (1925). “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba: Sarf”. Toshkent-Samarqand: O‘zdavnashr. (Tanlangan asarlar, 2006 yoki 2009 nashri asosida).
2. Ganiyeva, D. S. (2024). *O‘zbek tilidagi unlilar tizimi haqida jadedlar fikri va yondashuvi*. “European Science International Conference: Modern Educational System and Innovative Teaching Solutions”, 1(2), 212–217. <https://esiconf.org/index.php/MESAS/article/download/493/460/927>
3. Hakimova, M. A., & Sotimboyeva, D. A. (2023). Abdurauf Fitrat ijodida tilshunoslikka oid qarashlar talqini. “*Journal of New Century Innovations*, 4” (2), 3–5. <https://newjournal.org/new/article/view/9887>
4. 1921 yil yanvarda bo‘lg‘on birinchi o‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyining chiqarg‘on qarorlari. (1922). Toshkent: Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti.
5. Jadid.uz. (2024). “Fitrat – fidoyi tilshunos”. <https://jadid.uz/fitrat-fidoyi-tilshunos>